

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

MADANIY MEROS OBYEKTLARINI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN FOYDALANISH TO‘G‘RISIDA

I. UMUMIY QOIDALAR

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi O‘zbekiston xalqining umummilliy boyligi bo‘lmish madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari

Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Oldingi tahrirga qarang.

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

ansambllar — tarixan tarkib topgan hududda aniq ko‘zga tashlanadigan, atrof manzarasi bilan umumiyliigi yoki aloqadorligi tarixiy, arxeologik, me‘moriy, estetik yoki ijtimoiy-madaniy qimmatga ega bo‘lgan, ijtimoiy, ma‘muriy, diniy, ilmiy, o‘quv-ta‘lim, istehkom, saroy, turarjoy, savdo, ishlab chiqarish va boshqa ahamiyatga molik hamda rassomlik, haykaltaroshlik, amaliy bezak san‘ati, me‘morchilik asarlari bilan bog‘liqlikda alohida yoki o‘zaro birgalikda turgan yodgorliklar, imoratlar va inshootlar guruhlar, shuningdek tarixiy tarhlarning hamda manzilgohlar imoratlarining qoldiqlari, landshaft arxitekturasi va bog‘-rog‘ san‘ati asarlari (bog‘lar, istirohat bog‘lari, xiyobonlar, sayilgohlar);

diqqatga sazovor joylar — inson va tabiat ijodining mushtarak mahsuli, shuningdek tarixiy, arxeologik, shaharsozlik, estetik, etnologik yoki antropologik qimmatga ega bo‘lgan hududlar, shu jumladan xalq hunarmandchiligi maskanlari, tarixiy manzilgohlar yoki shaharsozlik tarhi markazlari va tarixiy (shu jumladan harbiy) voqealar, yodgorliklar, atoqli tarixiy shaxslarning hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan imoratlar, xotira joylari, tabiiy landshaftlar, shuningdek ko‘hna shaharlar, shahristonlar, manzilgohlar, qarorgohlar imoratlarining madaniy qatlamlari, qoldiqlari, marosimlar bajo etiladigan joylar;

yodgorliklar — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan ayrim imoratlar, binolar va inshootlar, ular bilan bog‘liq bo‘lgan rassomlik, haykaltaroshlik, amaliy bezak san‘ati asarlari hamda shu imoratlar, binolar va inshootlarning tarixan tarkib topgan hududlari, shuningdek memorial uylar, kvartiralar, qabristonlar, maqbaralar va ayrim qabrlar, monumental san‘at asarlari, fan va texnika (shu jumladan harbiy texnika) obyektlari, antropologiya, etnografiya, numizmatika, epigrafika, kartografiya, fotografiya materiallari, kinofilmlar, audio-, video yozuvlar hamda boshqa jismlardagi yozuvlar, adabiyot va san‘at asarlari, arxiv, qo‘lyozma va chizma hujjatlar, qadimgi qo‘lyozma kitoblar, harf terish usulida chiqarilgan dastlabki kitoblar, nodir va noyob nashrlar, notalar, muqaddas buyumlar va memorial xususiyatga ega bo‘lgan ashyolar, tosh haykallar, qoyaga o‘yib solingan tasvirlar, arxeologiya yodgorliklari;

madaniy meros obyektlari — moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlari;

moddiy madaniy meros obyektlari — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan ansambllar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar;

nomoddiy madaniy meros obyektlari — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so‘z, raqs, musiqa, tomosha san’ati), shuningdek ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san’ati bilan bog‘liq bilimlar, ko‘nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar.

(3-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2009-yil 9-oktabrdagi O‘RQ-228-sonli Qonuni tahririda — O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009-y., 41-son, 440-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

4-modda. Moddiy madaniy meros obyektlarining toifalari

Moddiy madaniy meros obyektlari quyidagi toifalarga bo‘linadi:

butun mamlakat tarixi va madaniyati uchun alohida ahamiyatga molik tarixiy, ilmiy, me‘moriy, badiiy va memorial qimmatga ega bo‘lgan respublika ahamiyatidagi moddiy madaniy meros obyektlari;

viloyat, tuman, shahar tarixi va madaniyati uchun alohida ahamiyatga molik tarixiy, ilmiy, me‘moriy, badiiy va memorial qimmatga ega bo‘lgan mahalliy ahamiyatdagi moddiy madaniy meros obyektlari.

(4-modda O‘zbekiston Respublikasining 2009-yil 9-oktabrdagi O‘RQ-228-sonli Qonuni tahririda — O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009-y., 41-son, 440-modda)

II. MADANIY MEROS OBYEKTLARINI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN FOYDALANISH SOHASIDAGI DAVLAT BOSHQARUVI

5-modda. Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi organlar

Oldingi tahrirga qarang.

Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “O‘zarxiv” agentligi va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

(5-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 13-iyundagi O‘RQ-436-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 24-son, 487-modda)

6-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini amalga oshiradi;

madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturlarini tasdiqlaydi;

Oldingi tahrirga qarang.

Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastrini va Nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro‘yxatini yuritish tartibini belgilaydi;

(6-moddaning to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2009-yil 9-oktabrdagi O‘RQ-228-sonli Qonuni tahririda — O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009-y., 41-son, 440-modda)

madaniy meros obyektlarining muhofaza qilinishi, asralishi va ulardan foydalanilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish tartibini belgilaydi;

Oldingi tahrirga qarang.

respublika ahamiyatidagi moddiy madaniy meros obyektlarining, shu jumladan Umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan obyektlarning hududlari va muhofaza tegralaridan foydalanish tartibotlarini tasdiqlaydi;

(6-moddaning oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 9-oktabrdagi O'RQ-228-sonli Qonuni tahririda — O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009-y., 41-son, 440-modda)
tarixiy-madaniy qo'riqxonalarni, muzey-qo'riqxonalarni va tarixiy manzilgohlarni tuzish tartibi va saqlash tartibotini belgilaydi;

madaniy meros obyektlarini tarixiy-madaniy ekspertizadan o'tkazish tartibini belgilaydi;
qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Oldingi tahrirga qarang.

7-modda. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi vakolatlari

(7-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 13-iyundagi O'RQ-436-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 24-son, 487-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi:

(7-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 13-iyundagi O'RQ-436-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 24-son, 487-modda)

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

Oldingi tahrirga qarang.

madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda qatnashadi;

(7-moddaning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 9-oktabrdagi O'RQ-228-sonli Qonuni tahririda — O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009-y., 41-son, 440-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

moddiy madaniy meros obyektlarini ilmiy va ilmiy-texnik tadqiq etish, konservatsiyalash, ta'mirlash hamda hozirgi zamonda foydalanishga moslashtirish bo'yicha davlat dasturlarini amalga oshiradi;

(7-moddaning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 9-oktabrdagi O'RQ-228-sonli Qonuni tahririda — O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009-y., 41-son, 440-modda)

madaniy meros obyektlarining aniqlanishi, hisobga olinishi, muhofaza qilinishi, targ'ib qilinishi va ulardan foydalanilishini ta'minlaydi;

madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish masalalari bo'yicha davlat boshqaruvi organlarining faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

Oldingi tahrirga qarang.

Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastrini va Nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro'yxatini yuritadi;

(7-moddaning yettinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 9-oktabrdagi O'RQ-228-sonli Qonuni tahririda — O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009-y., 41-son, 440-modda)

madaniy meros obyektlarining tarixiy-madaniy ekspertizasini tashkil etadi va amalga oshiradi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

8-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Bosh arxiv boshqarmasining madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi vakolatlari

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "O'zarxiv" agentligi O'zbekiston Respublikasining Milliy arxiv fondida turgan madaniy meros hujjatli obyektlarini o'ziga berilgan vakolatlar doirasida hisobga olinishi, muhofaza qilinishi va ulardan foydalanilishini amalga oshiradi.

(8-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 30-apreldagi 621-II-son Qonuni tahririda — O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2004-y., 25-son, 287-modda)

9-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi vakolatlari

Mahalliy davlat hokimiyati organlari o'zlariga berilgan vakolatlar doirasida o'z hududlarida joylashgan madaniy meros obyektlarini aniqlaydilar hamda ularni hisobga oladilar, muhofaza qiladilar, asraydilar va ulardan foydalanadilar, madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijro etilishini ta'minlaydilar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va jamoat birlashmalarini madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish tadbirlarini o'tkazishga jalb etadilar.

III. MADANIY MEROS OBYEKTLARINI DAVLAT TOMONIDAN MUHOFAZA QILISH

10-modda. Madaniy meros obyektlarining davlat tomonidan muhofaza qilinishini ta'minlash

Madaniy meros obyektlarini davlat tomonidan muhofaza qilish bu madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasida davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi organlar tomonidan ko'riladigan huquqiy, tashkiliy, moliyaviy, axborotga doir, moddiy-texnikaviy va boshqa chora-tadbirlar tizimidir.

Oldingi tahrirga qarang.

Madaniy meros obyektlarini davlat tomonidan muhofaza qilish:

tarixiy-madaniy qimmatga ega bo'lgan obyektlarni davlat hisobiga olish, hamda Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastrini va Nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro'yxatini yuritish;

madaniy meros obyektlarining ilmiy va ilmiy-texnik tadqiq etilishini rivojlantirish;

madaniy meros obyektlarini tarixiy-madaniy ekspertizadan o'tkazish;

moddiy madaniy meros obyektlari muhofaza tegralarining loyihalarini ishlab chiqish;

Oldingi tahrirga qarang.

moddiy madaniy meros obyektlari joylashgan yerlarda hamda ularga tutash hududlarda yer qazish, yer tuzish, qurilish, melioratsiya, xo'jalik ishlari va boshqa ishlarni, moddiy madaniy meros obyektlarini asrash bo'yicha ishlarni amalga oshirish, shuningdek moddiy madaniy meros obyektlarida ilmiy va ilmiy-texnik tadqiqotlar o'tkazish uchun ruxsatnomalar berish;

(10-moddaning ikkinchi qismi oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-apreldagi O'RQ-476-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son)

alohida tartibga solinishi lozim bo'lgan va moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish bilan bog'liq shaharsozlik faoliyati obyektlarining chegaralarini belgilash;

moddiy madaniy meros obyektlarida muhofaza belgilarini o'rnatish;

madaniy meros obyektlari holatining monitoringini amalga oshirish.

Madaniy meros obyektlarini davlat tomonidan muhofaza qilish qonun hujjatlariga muvofiq boshqa chora-tadbirlar orqali ham ta'minlanishi mumkin.

(10-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 9-oktabrdagi O'RQ-228-sonli Qonuni tahririda — O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009-y., 41-son, 440-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

11-modda. Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastrini va Nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro'yxati

Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastrini Davlat kadastrlari yagona tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi hamda u moddiy madaniy meros obyektlarining geografik joylashuvi, huquqiy maqomi, miqdor, sifat tavsiflari va bahosi to'g'risidagi yangilanib turiladigan ma'lumotlar va hujjatlar tizimidan iborat bo'ladi.

Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastrini yuritishga quyidagilar kiradi:

moddiy madaniy meros obyektlariga doir mulk huquqi va boshqa huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish;

moddiy madaniy meros obyektlarining miqdor va sifat tavsiflarini hisobga olish;

moddiy madaniy meros obyektlarini sifat va qiymat jihatidan baholash;

kadastr axborotini tizimga solish, saqlash va yangilab borish;

moddiy madaniy meros obyektlarining holati haqida hisobotlar tuzish;

Davlat kadastrlari yagona tizimiga kiritish uchun tegishli axborot taqdim etish;

foydalanuvchilarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kadastr axboroti bilan ta'minlash.



LexUZ sharhi

O'zbekiston Respublikasining "Davlat kadastrlari to'g'risida"gi Qonunining 17-moddasiga muvofiq davlat kadastrlariga doir axborot davlat hokimiyati organlariga bepul, boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga esa belgilangan tartibda haq evaziga taqdim etiladi.

Nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro'yxati nomoddiy madaniy meros obyektlari to'g'risidagi yangilanib turiladigan ma'lumotlar ko'rsatilgan hisobga olish hujjatidan iborat bo'ladi.

Nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro'yxatini yuritishga quyidagilar kiradi:

nomoddiy madaniy meros obyektini identifikatsiya qilish;

tegishli nomoddiy madaniy meros obyektlarining tarmoqlari, yo'nalishlari, janrlari va uslublarini tasniflash;

nomoddiy madaniy meros obyektlarini doimiy ravishda tiklovchi shaxslarni, guruhlarini ko'rsatish;

ma'lumotlarni tizimga solish, saqlash va yangilab borish;

nomoddiy madaniy meros obyektlarining sifat holatini aniqlash va uning natijalari bo'yicha hisobotlar tuzish.

Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastrini va Nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro'yxatini yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 29-iyuldagi 269-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi madaniy meros obyektlari davlat kadastrini yuritish tartibi to'g'risida"gi nizom va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 23-fevraldagi 47-sonli "Nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.

(11-modda O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 9-oktabrdagi O'RQ-228-sonli Qonuni tahririda — O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009-y., 41-son, 440-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

12-modda. Madaniy meros obyektini Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastriga yoki Nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro'yxatiga kiritish

Oldingi tahrirga qarang.

Tarixiy-madaniy qimmatga ega bo'lgan obyektlarni Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastriga yoki Nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro'yxatiga kiritish O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslarning takliflari asosida amalga oshiriladi.

(12-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 13-iyundagi O'RQ-436-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 24-son, 487-modda)

Tarixiy-madaniy qimmatga ega bo'lgan obyektlarni Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastriga yoki Nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro'yxatiga kiritish maqsadga muvofiqligi to'g'risida tarixiy-madaniy ekspertiza xulosasi olingan kundan e'tiboran mazkur obyektlar aniqlangan madaniy meros obyektlari jumlasiga kiritiladi.

Arxeologiya yodgorliklari topilgan paytidan e'tiboran aniqlangan moddiy madaniy meros obyektlari jumlasiga kiritiladi.

Tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan yangi aniqlangan moddiy madaniy meros obyektlari Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastriga kiritilishi to'g'risidagi masala hal qilingungacha ushbu Qonun talablariga muvofiq muhofaza qilinishi kerak.

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi aniqlangan moddiy madaniy meros obyektining mulkdorini mazkur obyekt Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastriga kiritilganligi to'g'risida qaror qabul qilingan paytdan e'tiboran o'ttiz kun ichida xabardor qilishi shart.

(12-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 13-iyundagi O'RQ-436-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 24-son, 487-modda)

(12-modda O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 9-oktabrdagi O'RQ-228-sonli Qonuni tahririda — O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009-y., 41-son, 440-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

13-modda. Moddiy madaniy meros obyektining pasporti

Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastriga kiritilgan moddiy madaniy meros obyektiga moddiy madaniy meros obyektining pasporti berilib, unga mazkur moddiy madaniy meros obyektini muhofaza qilish mazmunidan iborat ma'lumotlar va obyektning tavsiflari kiritiladi.

(13-modda O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 9-oktabrdagi O'RQ-228-sonli Qonuni tahririda — O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009-y., 41-son, 440-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

14-modda. Moddiy madaniy meros obyektini Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastridan chiqarish

Oldingi tahrirga qarang.

Moddiy madaniy meros obyektini moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastridan chiqarish, agar obyekt jisman to'la yo'qotilgan bo'lsa yoki moddiy madaniy meros obyektini sifatidagi o'z qimmatini yo'qotgan bo'lsa, tarixiy-madaniy ekspertiza xulosasi asosida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

(14-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 13-iyundagi O'RQ-436-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 24-son, 487-modda)

Moddiy madaniy meros obyektini Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastridan chiqarish to'g'risidagi qaror ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

(14-modda O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 9-oktabrdagi O'RQ-228-sonli Qonuni tahririda — O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009-y., 41-son, 440-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

15-modda. Madaniy meros obyektlarining tarixiy-madaniy ekspertizasi

Madaniy meros obyektlarining tarixiy-madaniy ekspertizasi:

madaniy meros obyektini Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastriga yoki Nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro'yxatiga kiritilishini asoslash;

moddiy madaniy meros obyektining toifasini belgilash;

moddiy madaniy meros obyektining toifasi o'zgartirilishini asoslash;

moddiy madaniy meros obyektini Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastridan chiqarish;

moddiy madaniy meros obyektlari muhofaza tegralari loyihalarining shaharsozlik va loyihalash hujjatlariga, shuningdek mo'ljallanayotgan yer qazish, yer tuzish, qurilish, melioratsiya, xo'jalik ishlari va boshqa ishlarning moddiy madaniy meros obyektlarini asrash talablariga muvofiqligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Madaniy meros obyektlarining tarixiy-madaniy ekspertizasi O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan tashkil etiladi va amalga oshiriladi.

(15-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 13-iyundagi O‘RQ-436-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 24-son, 487-modda)

(15-modda O‘zbekiston Respublikasining 2009-yil 9-oktabrdagi O‘RQ-228-sonli Qonuni tahririda — O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009-y., 41-son, 440-modda)

16-modda. Tarixiy-madaniy ekspertiza obyektlari

Oldingi tahrirga qarang.

Tarixiy-madaniy ekspertiza obyektlari quyidagilardir:

xo‘jalik jihatidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan yer uchastkalari, agar ularda moddiy madaniy meros obyektlari joylashgan bo‘lsa;

madaniy meros obyektlari Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastriga yoki Nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro‘yxatiga kiritilishini asoslovchi materiallar;

moddiy madaniy meros obyektlari Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastridan chiqarilishini asoslovchi materiallar;

moddiy madaniy meros obyektining toifasi belgilanishini yoki o‘zgartirilishini asoslovchi materiallar;

ushbu Qonunda belgilangan hollarda shaharsozlik va loyiha hujjatlari;

moddiy madaniy meros obyektlariga bevosita yoki bilvosita ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan yer qazish, yer tuzish, qurilish, melioratsiya, xo‘jalik ishlari va boshqa ishlarni asoslovchi hujjatlar.



LexUZ sharhi

Tarixiy-madaniy ekspertiza yuzasidan batafsil ma‘lumot uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 29-iyuldagi 269-sonli qarori bilan tasdiqlangan Madaniy meros obyektlarining tarixiy-madaniy ekspertizasi to‘g‘risidagi Nizomga qarang.

(16-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2009-yil 9-oktabrdagi O‘RQ-228-sonli Qonuni tahririda — O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009-y., 41-son, 440-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

17-modda. Moddiy madaniy meros obyektlari qo‘riqlanadigan tegralar

Moddiy madaniy meros obyektining o‘zgartirilishi mumkin bo‘lmagan o‘ziga xos xususiyatlarini va uning tarixiy muhitini saqlab qolish maqsadida unga tutash hududda muhofaza tegralari, imoratlar qurish va xo‘jalik faoliyatini tartibga solish tegralari, qo‘riqlanadigan tabiiy landshaft tegralari belgilab qo‘yiladi.

Muhofaza tegralari, imoratlar qurish va xo‘jalik faoliyatini tartibga solish tegralari hamda qo‘riqlanadigan tabiiy landshaft tegralarining chegaralari va ularni saqlash tartibotlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

(17-moddaning nomi va birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2009-yil 9-oktabrdagi O‘RQ-228-sonli Qonuni tahririda — O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009-y., 41-son, 440-modda)

18-modda. Madaniy meros obyektlarining holati ustidan nazorat

Oldingi tahrirga qarang.

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, mahalliy davlat hokimiyati organlari Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastriga yoki Nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro‘yxatiga kiritilgan madaniy meros obyektlari holatini nazorat qilib turishi hamda moddiy madaniy meros obyektlarining asralishi yuzasidan joriy va istiqbol dasturlarini ishlab chiqish maqsadida besh yilda bir marta moddiy madaniy meros obyektlarining holatini ko‘rikdan o‘tkazishi va ularni qayd etib qo‘yishi shart.

(18-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 13-iyundagi O‘RQ-436-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 24-son, 487-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

19-modda. Madaniy meros obyektlarini Umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga yoki Insoniyat nomoddiy madaniy merosining representativ ro'yxatiga kiritish

Tarix, san'at, fan, estetika, etnologiya yoki antropologiya nuqtai nazaridan har tomonlama beqiyos qimmatga ega bo'lgan madaniy meros obyektlari Umumjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya hamda Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiyada belgilangan tartibda tegishincha Umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga yoki Insoniyat nomoddiy madaniy merosining representativ ro'yxatiga kiritish yo'li bilan jahon madaniy merosi obyektlari jumlasiga kiritilishi mumkin.

Madaniy meros obyektlari tarixiy-madaniy ekspertizasining xulosasi asosida madaniy meros obyektlarini Umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga yoki Insoniyat nomoddiy madaniy merosining representativ ro'yxatiga kiritish to'g'risidagi takliflar hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (YuNESKO) huzuridagi Umumjahon merosi qo'mitasi va Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha hukumatlararo qo'mita talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan hujjatlar yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasining YuNESKO ishlari bo'yicha Milliy komissiyasiga yuboriladi

(19-modda O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 9-oktabrdagi O'RQ-228-sonli Qonuni tahririda — O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009-y., 41-son, 440-modda)

IV. MADANIY MEROS OBYEKTLARINI ASRASH

Oldingi tahrirga qarang.

20-modda. Madaniy meros obyektlarini asrash chora-tadbirlari

Moddiy madaniy meros obyektlarini asrash chora-tadbirlari ularni konservatsiyalash, tuzatish, ta'mirlash, hozirgi zamonda foydalanishga moslashtirishni, shuningdek ular bilan bog'liq ilmiy va ilmiy-texnik tadqiqotlar, loyihalash hamda ishlab chiqarish ishlarini o'z ichiga oladi.

Moddiy madaniy meros obyektini konservatsiyalash — moddiy madaniy meros obyektini mavjud ko'rinishida asrash va uning holati yomonlashuvining oldini olish maqsadida amalga oshiriladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadqiqotlar, loyihalash hamda ishlab chiqarish ishlari majmui.

Moddiy madaniy meros obyektini tuzatish — moddiy madaniy meros obyektining muhofaza mazmunini tashkil etuvchi o'ziga xos xususiyatlarini o'zgartirmagan holda obyektini foydalanish holatida saqlab turish maqsadida amalga oshiriladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadqiqotlar, loyihalash hamda ishlab chiqarish ishlari majmui.

Moddiy madaniy meros obyektini ta'mirlash — moddiy madaniy meros obyektining tarixiy va estetik qimmatini aniqlash hamda saqlab qolish va uning but saqlanishini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadqiqotlar, loyihalash hamda ishlab chiqarish ishlari majmui.

Moddiy madaniy meros obyektini hozirgi zamonda foydalanishga moslashtirish — moddiy madaniy meros obyektining tarixiy-badiiy qimmatini va asralishini o'zgartirmasdan uning tarixiy-madaniy qimmatga ega bo'lgan unsurlarini ta'mirlash asosida undan hozirgi zamonda foydalanishga shart-sharoit yaratish maqsadida amalga oshiriladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadqiqotlar, loyihalash hamda ishlab chiqarish ishlari majmui.

Nomoddiy madaniy meros obyektlarini asrash chora-tadbirlari ilmiy va ilmiy-texnik tadqiqotlar, hujjatlashtirish, targ'ib qilish va rag'batlantirish ishlarini o'z ichiga oladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Moddiy madaniy meros obyektini asrashga doir ishlar O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan beriladigan ruxsatnoma asosida amalga oshiriladi.

(20-moddaning yettinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 13-iyundagi O'RQ-436-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 24-son, 487-modda)

(20-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 9-oktabrdagi O'RQ-228-sonli Qonuni tahririda — O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009-y., 41-son, 440-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

21-modda. Yo‘qotilgan madaniy meros obyektini asli holiga keltirish

Yo‘qotilgan moddiy madaniy meros objekti alohida tarixiy, ilmiy, badiiy, shaharsozlik yoki o‘zgacha ijtimoiy ahamiyatga molik bo‘lgan hollarda yo‘qotilgan moddiy madaniy meros objekti ta‘mirlash usullari orqali asli holiga keltiriladi.

Yo‘qotilgan nomoddiy madaniy meros objekti alohida tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha ijtimoiy ahamiyatga molik bo‘lgan hollarda yo‘qotilgan nomoddiy madaniy meros objekti ilmiy va ilmiy-texnik tadqiqotlar, ta‘mirlash usullari orqali asli holiga keltiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Yo‘qotilgan madaniy meros obyektini O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan asli holiga keltirish to‘g‘risidagi qarorni O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining madaniy meros obyektlarining tarixiy-madaniy ekspertizasi xulosasi asosidagi taqdimnomasiga binoan manfaatdor organlar va tashkilotlarning fikrini hisobga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qabul qiladi.

(21-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 13-iyundagi O‘RQ-436-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 24-son, 487-modda)

(21-modda O‘zbekiston Respublikasining 2009-yil 9-oktabrdagi O‘RQ-228-sonli Qonuni tahririda — O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009-y., 41-son, 440-modda)

22-modda. Arxeologiya yodgorliklarini tadqiq etish

Oldingi tahrirga qarang.

Arxeologiya yodgorliklarini tadqiq etish (qazish va qidirish)ga O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi beradigan ruxsatnomalar mavjud bo‘lgan taqdirdagina yo‘l qo‘yiladi.

(22-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 13-iyundagi O‘RQ-436-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 24-son, 487-modda)

Arxeologiya yodgorliklarini tadqiq etayotgan shaxslar ularning boshlang‘ich konservatsiya qilinishi va asralishini ta‘minlashlari shart.

Oldingi tahrirga qarang.

Qazish va qidirish ishlari tugaganidan keyin, lekin ruxsatnomalarning amal qilish muddatlari o‘tmasidan oldin, arxeologiya yodgorliklarini tadqiq etayotgan shaxslar O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligiga hisobot taqdim etishlari hamda qazish va qidirish natijasida topilgan hamda tarixiy, ilmiy, madaniy yoki o‘zgacha qimmatga ega bo‘lgan ashyolarni belgilangan tartibda davlatga topshirishlari shart.

(22-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 13-iyundagi O‘RQ-436-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 24-son, 487-modda)



LexUZ sharhi

Qo‘shimcha ma‘lumot uchun O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 196-moddasiga qarang.

Oldingi tahrirga qarang.

V. MODDIY MADANIY MEROS OBYEKTLARIGA EGALIK QILISH, ULARDAN FOYDALANISH VA ULARNI TASARRUF ETISH

23-modda. Moddiy madaniy meros obyektlariga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etishning o‘ziga xos jihatlari

Moddiy madaniy meros obyektining mulkdori o‘ziga qarashli bo‘lgan moddiy madaniy meros objekti yo‘qotilsa uning o‘rni to‘ldirib bo‘linmasligini hamda uning tarixiy, madaniy yoki ilmiy ahamiyatini hisobga olgan holda, uni saqlab turish vazifasini zimmasiga oladi.

Moddiy madaniy meros obyektlari joylashgan yer uchastkalarining egalari (mulkdorlari) zimmasiga mazkur obyektlarni saqlab turish vazifasi, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar yuklanishi mumkin.

Moddiy madaniy meros obyektining ijarasi ijara shartnomasi asosida amalga oshirilib, unda moddiy madaniy meros obyektini saqlash talablari qayd etilgan bo'lishi kerak.

Davlat mulkida turgan moddiy madaniy meros obyektlari davlat tasarrufidan chiqarilishi va xususiylashtirilishi mumkin emas.

24-modda. Moddiy madaniy meros obyektlaridan foydalanish

Moddiy madaniy meros obyektlarining mulkdorlari bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar: moddiy madaniy meros obyektining tashqi va ichki ko'rinishini moddiy madaniy meros obyektining pasportiga kiritilgan muhofaza mazmuni ma'lumotlariga muvofiq holda saqlash;

Oldingi tahrirga qarang.

moddiy madaniy meros obyektlari joylashgan yerlarda hamda ularga tutash hududlarda yer qazish, yer tuzish, qurilish, melioratsiya, xo'jalik ishlari va boshqa ishlarni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining ruxsatnomasini olish;

(24-modda O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-apreldagi O'RQ-476-sonli Qonuniga asosan uchinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son)

alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hududlarni saqlab turish tartibotini ta'minlash;

moddiy madaniy meros obyektining mulkdori tomonidan belgilanadigan shartlardagi moddiy madaniy meros obyektining hamma uchun ochiqligi talablarini albatta bajargan holda ularning asralishini ta'minlashga majburdirlar.

25-modda. Moddiy madaniy meros obyektidan foydalanish huquqlarining cheklanishi

Oldingi tahrirga qarang.

Moddiy madaniy meros obyektidan foydalanish shartlari O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan mazkur moddiy madaniy meros obyektining, uning tevarak atrofidagi tabiiy muhitning muhofaza qilinishi, asralishi, targ'ib qilinishi va undan foydalanilishi uchun, jismoniy va yuridik shaxslar, shuningdek davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi uchun qay darajada zarur bo'lsa, shu darajada cheklanishi mumkin.

(25-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 13-iyundagi O'RQ-436-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 24-son, 487-modda)

Xususiylashtirilgan mulkda turgan moddiy madaniy meros obyektidan foydalanish huquqi qonunda nazarda tutilgan hollarda sud qarori bilan cheklanishi mumkin.



LexUZ sharhi

Mazkur Qonunning 26-moddasiga berilgan sharhga qarang.

Moddiy madaniy meros obyektidan foydalanishda cheklashni joriy etish zaruriyatini yuzaga keltirgan holatlar yoki shart-sharoitlar bartaraf etilgan taqdirda mazkur obyektidan foydalanish huquqi to'la hajmda tiklanadi.

26-modda. Moddiy madaniy meros obyektiga doir mulk huquqining bekor qilinishi

Moddiy madaniy meros obyektiga doir mulk huquqi qonun hujjatlariga muvofiq bekor qilinishi mumkin.

Xususiylashtirilgan mulkda turgan moddiy madaniy meros obyektiga doir mulk huquqi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda sud qarori bilan mulkdordan olib qo'yilishi mumkin.



LexUZ sharhi

Agar mulkdor o'ziga qarashli tarix va madaniyat yodgorligiga xo'jasizlarcha munosabatda bo'lsa va uning yaxshi saqlanishini ta'minlamasa, zimmasida yodgorliklarni saqlash vazifasi bo'lgan davlat organlari mulkdorni yodgorlikka xo'jasizlarcha munosabatda bo'lishni to'xtatish haqida ogohlantiradilar. Agar mulkdor ushbu talabni bajarmasa, tegishli organlarning da'vosiga ko'ra sud yodgorlikni olib qo'yish haqida qaror chiqarishi mumkin, bu yodgorlik davlat mulkiga o'tadi. Olib qo'yilgan tarix va madaniyat

yodgorligining qiymati mulkdorga kelishuvda belgilangan, nizo chiqqan taqdirda esa — sud tomonidan belgilangan miqdorda to'lanadi. Kechiktirib bo'lmaydigan hollarda tarix va madaniyat yodgorligini olib qo'yish haqidagi da'vo oldindan ogohlantirmasdan ham qo'zg'atilishi mumkin (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 190-moddasi).

Umumiy mulkda turgan moddiy madaniy meros obyektlari va ularning ajralmas qismi hisoblanadigan yer uchastkalari bo'linmaydi.

27-modda. Davlat mulkida turgan moddiy madaniy meros obyektini tekin foydalanishga berish

Davlat mulkida turgan moddiy madaniy meros obyektini tekin foydalanish shartnomasi shartlarida quyidagilarga berib qo'yilishi mumkin:

moddiy madaniy meros obyektlarini saqlash maqsadida faoliyat yuritayotgan jamoat birlashmalariga;

bolalar jamoat birlashmalariga;

nogironlar jamoat birlashmalariga;

diniy tashkilotlarga.

Moddiy madaniy meros obyektidan tekin foydalanish shartnomasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuziladi va u moddiy madaniy meros obyektini saqlash bo'yicha talablarni o'z ichiga olgan bo'lishi kerak.

28-modda. Moddiy madaniy meros obyektidan foydalanish huquqining bekor qilinishi

Moddiy madaniy meros obyektidan foydalanish huquqi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda quyidagi hollarda bekor qilinadi:

moddiy madaniy meros obyektidan tekin foydalanish shartnomasi yoki ijara muddati o'tganidan keyin foydalanuvchi foydalanish huquqidan ixtiyoriy ravishda voz kechganda;

foydalanuvchi-jismoniy shaxs vafot etganda;

foydalanuvchi-yuridik shaxs tugatilganda;

moddiy madaniy meros obyektiga foydalanuvchi qasddan zarar yetkazganda;

moddiy madaniy meros obyektini joylashgan yer uchastkasi davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilganda.

Moddiy madaniy meros obyektlaridan foydalanish huquqi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa hollarda ham bekor qilinishi mumkin.

(V bob O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 9-oktabrdagi O'RQ-228-sonli Qonuni tahririda — O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009-y., 41-son, 440-modda)

VI. ALOHIDA MUHOFAZA QILINADIGAN TARIXIY-MADANIY HUDUDLAR

29-modda. Alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hududlarni tashkil etish

Oldingi tahrirga qarang.

Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastriga kiritilgan alohida tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan moddiy madaniy meros obyektlari hududida alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hududlar tashkil etilishi mumkin.

(29-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 9-oktabrdagi O'RQ-228-sonli Qonuni tahririda — O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009-y., 41-son, 440-modda)

Alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hududlar tarixiy-madaniy qo'riqxonalar, muzey-qo'riqxonalar, tarixiy manzilgohlar ko'rinishida va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shakllarda tashkil etiladi.

Alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hududlarni tashkil etish tartibi hamda ularni saqlash tartiboti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

30-modda. Tarixiy-madaniy qo'riqxonalar

Oldingi tahrirga qarang.

Diqqatga sazovor joy yoki uning bir qismi hamda shu tegrada joylashgan yodgorliklar va ansambllar birgalikda tarixiy-madaniy qo‘riqxonalar hisoblanib, unda alohida tartibot o‘rnatiladi. Bu tartibot moddiy madaniy meros obyektlari tevarak atrofidagi tarixiy muhit bilan birga asralishini, tarixiy-madaniy qo‘riqxonalar hududining yaxlitligini, shuningdek mazkur hudud chegaralarida qurilish va xo‘jalik faoliyati tartibga solib turilishini ta‘minlaydi.

Tarixiy-madaniy qo‘riqxonalar va u bilan bog‘liq tabiiy landshaft tarkibiga kiruvchi moddiy madaniy meros obyektlarida muzeylar yaratilsa, shuningdek tarixiy-madaniy qo‘riqxonalar hududida ilgari udum bo‘lgan an‘anaviy xo‘jalik faoliyatini va boshqa faoliyatni tiklash zarurati tug‘ilsa, mazkur tarixiy-madaniy qo‘riqxonalar muzey-qo‘riqxonalar deb hisoblanadi.

(30-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2009-yil 9-oktabrdagi O‘RQ-228-sonli Qonuni tahririda — O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009-y., 41-son, 440-modda)

31-modda. Tarixiy-madaniy qo‘riqxonalar va muzey-qo‘riqxonalar chegarasi

Oldingi tahrirga qarang.

Tarixiy-madaniy qo‘riqxonalar va muzey-qo‘riqxonalar chegarasi O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan tarixiy-madaniy reja va (yoki) tarixiy-madaniy qo‘riqxonalar hamda muzey qo‘riqxonalarining taklif qilinayotgan chegarasini asoslab beruvchi boshqa materiallar asosida aniqlanadi.

(31-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 13-iyundagi O‘RQ-436-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 24-son, 487-modda)

Tarixiy-madaniy qo‘riqxonalar va muzey-qo‘riqxonalar chegarasi diqqatga sazovor joyning chegarasiga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.

32-modda. Tarixiy manzilgoh

Oldingi tahrirga qarang.

Tarixiy manzilgoh deyilganda uning hududi doirasida o‘tmishda yaratilgan, tarixiy, estetik, ijtimoiy-madaniy, arxeologik, me‘moriy yoki shaharsozlik qimmatiga ega bo‘lgan va xalqning o‘ziga xosligini, uning jahon madaniyatiga qo‘shgan hissasini saqlab qolish uchun muhim ahamiyatga molik moddiy madaniy meros obyektlari joylashgan manzilgohlar tushuniladi.

(32-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2009-yil 9-oktabrdagi O‘RQ-228-sonli Qonuni tahririda — O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009-y., 41-son, 440-modda)

Tarixiy manzilgohda joylashgan va shaharning muayyan bo‘lagi sifatida tarixiy qimmatga ega bo‘lgan barcha obyektlar: rejaviy tarh, imorat, kompozitsiya, tabiiy landshaft, arxeologik qatlam, shahardagi turli (bo‘sh turgan, imoratlar qurilgan, ko‘kalamzorlashtirilgan) maydonlarning o‘zaro nisbati, katta-kichik yoki uzun-qisqa ko‘rinishlari, shahar qurilishining bo‘lak-bo‘lak va xaroba holidagi osori atiqalari, sahni, mahobati, tuzilishi, uslubi, materiallari, rangi va manzarali elementlari bilan ajralib turadigan binolar, inshootlarning shakli va tashqi qiyofasi muhofaza qilinishi kerak.

Tarixiy manzilgohdagi tabiiy tarkib topgan va inson qo‘li bilan yaratilgan manzaralar uyg‘unligi, tarixiy manzilgoh taraqqiyoti davrida unga xos bo‘lib qolgan turli jihatlar, shuningdek boshqa qimmatli elementlar saqlab qolinishi kerak.

33-modda. Tarixiy manzilgohda shaharsozlik, xo‘jalik faoliyati va boshqa faoliyatni tartibga solishning o‘ziga xos jihatlari

Oldingi tahrirga qarang.

Tarixiy manzilgoh hududi doirasida shaharsozlik, xo‘jalik faoliyati va boshqa faoliyat moddiy madaniy meros obyektlari va mazkur manzilgohning boshqa qimmatli xususiyatlarini saqlab qolish sharti bilan amalga oshirilmog‘i lozim.

Moddiy madaniy meros obyektlarini, shuningdek tarixiy-madaniy yoki tabiiy qimmatga ega bo‘lgan boshqa obyektlarni saqlab qolish maqsadida tarixiy manzilgohlarda qonun hujjatlariga muvofiq shaharsozlik faoliyatini tartibga solishning alohida tartibi belgilab qo‘yiladi.

Tarixiy manzilgohlarda shaharsozlik faoliyatini tartibga solishning alohida tartibi madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvini amalga

oshiruvchi tegishli organning hamda arxitektura-shaharsozlik faoliyatini tartibga solish sohasidagi davlat boshqaruvi organlarining nazorati ostida o'tkaziladigan moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish bo'yicha izchil va o'zaro bog'liq tadbirlar tizimidan iborat. Alohida tartib tarixiy-me'moriy, tarixiy-shaharsozlik, arxiv va arxeologiya tadqiqotlari asosida tarixiy manzilgoh hududi chegaralarida tarixiy-madaniy qimmatga ega bo'lgan yer uchastkalarida joylashgan, ham saqlanib qolgan, ham yo'qotilgan mazkur tarixiy manzilgohning rivojlanish bosqichlarini ko'rsatuvchi barcha shaharsozlik elementlari va inshootlarini asoslagan holda tarixiy-madaniy tayanch rejasini tuzishni, binolar hamda inshootlarning o'lchamlari va nisbatlariga, avtomobillar turadigan joylarni, reklamalar va lavhalarini joylashtirishni taqiqlash va cheklashlarga hamda moddiy madaniy meros obyektlarini saqlash uchun zarur bo'lgan boshqa cheklashlarga taalluqli shaharsozlik reglamentini o'z ichiga oladi.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksining 7 va 41-moddalariga qarang.

(33-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 9-oktabrdagi O'RQ-228-sonli Qonuni tahririda — O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009-y., 41-son, 440-modda)

VII. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

34-modda. Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishning moliyalashtirilishi

Oldingi tahririga qarang.

Madaniy meros obyektlarini davlat tomonidan muhofaza qilish bo'yicha faoliyatni moliyalashtirish manbalari O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag'lari va budgetdan tashqari mablag'lardir.

Yuridik va jismoniy shaxslarning mulki bo'lgan moddiy madaniy meros obyektlarining muhofaza qilinishi va ulardan foydalanilishi mulkdorlar va foydalanuvchilarning mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.

Moddiy madaniy meros obyektlarini foydalanishga berishdan, xizmatlar ko'rsatishdan, yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy ajratmalari hamda xayriyalaridan tushgan mablag'lar qonun hujjatlariga muvofiq moddiy madaniy-meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash va targ'ib qilishga hamda moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishda band bo'lgan xodimlarni moddiy rag'batlantirish uchun sarflanadi.

(34-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 9-oktabrdagi O'RQ-228-sonli Qonuni tahririda — O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009-y., 41-son, 440-modda)

35-modda. Nizolarni hal etish

Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish masalalari yuzasidan kelib chiqadigan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

36-modda. Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishida aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.



LexUZ sharhi

Tarix yoki madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish qoidalarini buzish O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 64-moddasi asosida javobgarlikka tortishga asos bo'ladi. Shunga o'xshash huquqbuzarlikni takroran sodir qilish O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 132-moddasiga asosan javobgarlikka tortishga asos bo'ladi (Tarix yoki madaniyat yodgorliklarini nobud qilish, buzish yoki ularga shikast yetkazish).

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. KARIMOV

Toshkent sh.
2001-yil 30-avgust,
269-II-son

(O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 180-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004-y., 25-son, 287-modda; 2005-y., 37-38-son, 277-modda; 2009-y., 41-son, 440-modda; 2013-y., 18-son, 233-modda; 2017-y., 24-son, 487-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son)